

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGINI TA‘MINLASH VA DINIY SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI KONSEPSIYASI”NING MAZMUN-MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14977318>

Sayidiraximova Nasiba Sayidmaxamadovna

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, filol. fan. nomzodi

Email: sayidiraximova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Konsepsiya so‘zining izohi, davlat tomonida qabul qilinadigan konsepsiyalar va ularning sabablari, turlari, “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi”ning maqsadi va vazifalari, mazmun-mohiyati, Konsepsiyada tilga olingan “Ta‘lim yo‘nalishida” faslida keltirilgan qator vazifalar xususida so‘z yuritiladi.

Tayanch iboralar

konsepsiya, iqtisodiy konsepsiya, falsafiy konsepsiya, ta‘lim konsepsiyasi, strategik rivojlanish, vijdon erkinligi prinsipi, dinning davlatdan ajratilganligi prinsipi, tenglik prinsipi, erkin tanlov prinsipi, dinlararo muloqot va o‘zaro tushunish prinsipi.

СОДЕРЖАНИЕ «КОНЦЕПЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ СВОБОДЫ СОВЕСТИ ГРАЖДАН И В РЕЛИГИОЗНОЙ СФЕРЕ»

Аннотация

В статье дано разъяснение слова «Концепция», причины и виды концепций, принимаемых государством, цели и задачи концепции «Обеспечение свободы совести граждан в Республике Узбекистан и концепция государственной политики в религиозной сфере», содержание и сущность в «разделе образования», упомянутых в Концепции.

Ключевые слова

концепция, экономическая концепция, философская концепция, образовательная концепция, стратегическое развитие, принцип свободы совести, принцип отделения религии от государства, принцип равенства,

принцип свободного выбора, принцип межрелигиозного диалога и взаимопонимания.

CONTENTS OF THE “CONCEPT OF STATE POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO ENSURING FREEDOM OF CONSCIENCE OF CITIZENS AND IN THE RELIGIOUS SPHERE”

Abstract

The article provides an explanation of the word “Concept”, the reasons and types of concepts adopted by the state, the goals and objectives of the concept “Ensuring freedom of conscience of citizens in the Republic of Uzbekistan and the concept of state policy in the religious sphere”, the content and essence in the “education section” mentioned in the Concept.

Key words

concept, economic concept, philosophical concept, educational concept, strategic development, principle of freedom of conscience, principle of separation of religion and state, principle of equality, principle of free choice, principle of interreligious dialogue and mutual understanding.

Har bir davlat muayyan tizim, maqsad va konsepsiya asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda barcha jabhalarda strategik jadal rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatiga mos hamda milliy rivojlanishni ko‘zlagan holda barcha sohalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator konsepsiyalarni qabul qilib kelmoqda [1, 2, 3, 4].

KONSEPSIYA so‘zi, aslida, lotincha, conceptio so‘zidan olingan bo‘lib, majmua, tizim ma‘nosini bildiradi. Bu so‘z ayrim lug‘atlarda: 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda – biror asarning asosiy g‘oyasi ma‘nosida talqin etiladi [5].

Konsepsiya – bu ma‘lum bir obyekt, hodisa yoki g‘oya haqidagi umumiy tushuncha yoki nazariya. U muayyan masalani tushuntirish, tahlil qilish va izohlash uchun ishlatiladi. Konsepsiya ma‘lumotlar, prinsiplar va qoidalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u muayyan yo‘nalishda fikr yuritish va qaror qabul qilishga yordam beradi. Masalan:

1. Iqtisodiy konsepsiya – iqtisodiyotni tushuntirish va boshqarish uchun ishlatiladigan nazariy yo‘nalish.

2. **Falsafiy konsepsiya** – olamni, inson hayotini va ma'naviy qiymatlarni izohlovchi qarashlar tizimi.

3. **Ta'lim konsepsiyasi** – ta'lim tizimi va metodlarini shakllantirish uchun ishlatiladigan yondashuvlar. Ya'ni konsepsiya – bu biror narsani tushunish va tushuntirish usulidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlat tomonidan turli konsepsiyalar qabul qilinishining bir nechta asosiy sabablari mavjud. Xususan:

1. **Strategik rivojlanish maqsadida qabul qilinadigan konsepsiyalar.** Bunday konsepsiyalar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Masalan, iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, raqamli transformatsiya konsepsiyasi yoki ta'limni takomillashtirish yoki davlat tilini rivojlantirish konsepsiyasi [2].

2. **Muammolarni hal qilish maqsadida qabul qilingan konsepsiyalar.** Har bir sohada mavjud muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni hal qilish uchun davlat konsepsiyalar ishlab chiqadi. Masalan, atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan ekologik konsepsiyalar.

3. **Qonun va qarorlar uchun asos yaratish maqsadida qabul qilingan konsepsiyalar.** Bunday konsepsiyalar kelgusida qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunlar va davlat dasturlari uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

4. **Jamiyat va iqtisodiyotni muvofiqlashtirish maqsadida qabul qilingan konsepsiyalar.** Bunda muayyan davlat jamiyat va iqtisodiyotni muvozanatda ushlab uchun konsepsiyalarni ishlab chiqib, ular asosida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda islohotlar o'tkazishni maqsad qiladi.

5. **Halqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qabul qilingan konsepsiyalar.** Zamonaviy dunyoda davlatlar global muammolarga javob topish uchun ham konsepsiyalar qabul qiladi. Masalan, innovatsiyalarni rivojlantirish yoki energetik xavfsizlik konsepsiyalari.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 25.02.2025-yildagi O'RQ-1037-son Qonuni ham strategik rivojlanish maqsadida qabul qilinadigan konsepsiya sifatida juda muhim ahamiyatga ega [6].

Mazkur Konsepsiya 7 bob, 41-banddan iborat bo'lib, uning 1-bobida Konsepsiyaning umumiy qoidalari, ushbu Konsepsiya O'zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat ekanligiga oid konstitutsiyaviy qoidalarni ro'yobga chiqarish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplarini va ustuvor yo'nalishlarini belgilashi ta'kidlanadi. Unda qo'llanilgan asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati izohlanadi.

Konsepsiyaning 2-bobida asosiy e'tibor "O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlash jarayonining zamonaviy holati tavsifi" masalalariga qaratilib, bu borada bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan ishlar xususida so'z boradi; 3-bobda "O'zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari", ya'ni O'zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlar yaratishdan, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishdan, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashdan, jamiyatda diniy bag'rikenglikni va dunyoviylikni ta'minlashdan iborat ekanligi ta'kidlanib, O'zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosati qonuniylik; vijdon erkinligi; dinning davlatdan ajratilganligi; tenglik; erkin tanlov; dinlararo muloqot va o'zaro tushunish kabi asosiy prinsiplarga tayanishi aniq ko'rsatib beriladi.

Konsepsiyaning [4-bobida "Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlashning va diniy sohadagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari"](#); 5-bobda "Dunyoviy davlatda umumjamiyat manfaatlari va vijdon erkinligi uyg'unligini ta'minlash" bu borada olib boriladigan vazifalarga e'tibor qaratiladi.

Uning 6-bobi "Dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari" masalalarini qamragan. Mazkur bob 7 fasl hamda 22-34-gacha bo'lgan bandlarni o'z ichiga oladi. Nazarimizda, mazkur bob konsepsiyaning eng muhim tarmoq - vazifalarini o'zida qamraydi. Sababi unda bu borada "Davlat boshqaruvi yo'nalishida (1-§.); "Iqtisodiyotni tartibga solish yo'nalishida" (2-§.); "Ta'lim yo'nalishida" (3-§.); "Tibbiyot yo'nalishida" (4-§.); "Madaniyat yo'nalishida" (4-§.); "Nikoh institutini tartibga solish yo'nalishida" (6-§.); ["Ijtimoiy axloq va xulq-atvor normalarini shakllantirish yo'nalishida"](#) (7-§.) kabi fasllarda davlat boshqaruvi yo'nalishidagi dunyoviylikni ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan tortib, rivojlanishning eng muhim jabhalariga e'tibor qaratilgan. Xususan, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, jamiyatning yetakchi bo'g'ini - oila, nikoh instituti, axloq normalarigacha bo'lgan muhim masalalarning biron-tasi e'tibordan chetda qolmagan.

Yosh kelajak avlodni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda ta'limning o'rni nihoyatda muhimligi sir emas. Konsepsiyada tilga olingan "Ta'lim yo'nalishida" faslida, "Ta'lim yo'nalishidagi dunyoviylik bu - ta'lim jarayonida, uni tashkil qilishda va ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda ta'lim oluvchilarda diniy aqida va qarashlardan holi tarzda ilmiy bilimlarni, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish, qarashlar xilma-xilligini hurmat qilish, umumjamiyat manfaatlariga hissa qo'shish g'oyalariga tayanishdir", degan

g'oya ilgari surilgan holda, unda ta'lim yo'nalishida dunyoviylikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari - ta'lim oluvchilarda ularga keng imkoniyatlarni taqdim etadigan aniq va gumanitar fanlar va ijtimoiy fanlarni, san'atni o'z ichiga olgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; insonparvarlik va adolat, do'stlik va hamjihatlik, milliy va umuminsoniy g'oyalarga hurmat kabi qadriyatlar singdirilishini, axloqiy masalalarga maqbul echim topish ko'nikmalari shakllantirilishini ta'minlash; xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish; mamlakat aholisida, ayniqsa yoshlarda ilmiy, aqliy salohiyatni yuksaltirish, vatanparvarlik tuyg'ularini, milliy qadriyatlar va ijtimoiy axloq normalariga bo'lgan hurmat ruhini kuchaytirish; turli diniy e'tiqodlar va ta'limotlarning tarixi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari to'g'risida xolisona bilim berish; turli dinlar, madaniyatlar va dunyoqarashlarga nisbatan hurmat, bag'rikenglik va tushunish muhitini ta'minlab borish kabi qator vazifalar belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat tomonidan qabul qilingan konsepsiyalar mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirish va turli sohalarda tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" davlatchiligimiz rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali O'zbekistonda umumjamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o'zaro totuvlikda yashash hamda izchil taraqqiy etish uchun zarur barqaror muhitni ta'minlashga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, 29.04.2019-yildagi PF-5712-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori. 29.06.2018-y., 07/18/3808/1410-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, 29.04.2019.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-son.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zME, 1989. – B. 405.

6. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida / O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2025-yildagi O'RQ-1037-son.